

DIPLOMATIYA VA BOJXONA DIPLOMATIYASI: XALQARO SAVDO VA MILLIY XAVFSIZLIK KONTEKSTIDA

Sattarov Dilshod Yuldashevich

Bojxona institute, Umumhuquqiy fanlar, kafedrası dotsenti

Anotatsiya: Ushbu maqola diplomatiya va bojxona diplomatiyasining o‘zaro bog‘liqlikni chuqur tahlil qiladi. Tadqiqot zamonaviy diplomatik usullar va bojxona jarayonlarining xalqaro savdo oqimlari, milliy xavfsizlik choralari hamda iqtisodiy muvozanatdagi o‘rnini yoritadi. Ushbu ikki soha o‘rtasidagi birgalikdagi ta’sirni ochib berishga qaratilgan maqola ilmiy tahlillar va amaliy yondashuvlarga asoslanib, yangi strategik yechimlar uchun poydevor yaratadi.

Kalit so‘zlar: diplomatiya, bojxona diplomatiyasi, milliy manfaatlar, xalqaro kelishuvlar, globalizatsiya, diplomatik muzokaralar, eksport-import, xalqaro savdo, milliy xavfsizlik, innovatsion texnologiyalar, global iqtisodiy integratsiya, iqtisodiy o‘sh.

Kirish

Diplomatiya davlatlar o‘rtasidagi aloqalarni muvofiqlashtirishda milliy manfaatlar himoyasi va xalqaro bitimlarga erishish uchun asosiy mexanizm sifatida ishlaydi. Diplomatiya – tashqi siyosatning asosiy bo‘g‘ini sifatida mamlakatni dunyoning barcha davlatlari bilan aloqasini ta’minlaydigan, keng maqsad va strategiyadan iborat tushuncha, o‘zaro va ko‘p tomonlama ishonchni mustahkamlash usulidir.¹ Shu bilan birga, bojxona diplomatiyasi xalqaro savdo oqimlarini boshqarish va iqtisodiy barqarorlikni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan. Ushbu soha bojxona qoidalarini joriy etish, to‘lovlarni tartibga solish va xavfsizlikni ta’minlashni o‘z ichiga oladi. Globalizatsiya davrida bu ikki yo‘nalishning bir-biriga ta’siri tobora kuchayib bormoqda. Davlatlar o‘zaro manfaatlarini diplomatik kanallar orqali himoya qiladi, bojxona tizimi esa eksport-import jarayonlarini sifatli boshqarishga imkon beradi. Ushbu maqola mazkur sohalarni nazariy va amaliy nuqtai nazardan ko‘rib chiqib, xalqaro savdo va milliy xavfsizlik masalalarini chuqur yoritadi.

Asosiy qism

Diplomatiya tarixan davlatlar o‘rtasidagi aloqalarni ta’minlovchi institut sifatida rivojlanib, siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalarni qamrab oldi. U xalqaro bitimlar va muzokaralar orqali o‘zaro ishonchni shakllantirib, davlatlarning manfaatlarini himoya qiladi. Xalqaro shartnomalar diplomatiya amaliyotidagi asosiy poydevor bo‘lib, siyosiy muvozanatni saqlashga xizmat qiladi.

Diplomatiya davlatlar aloqalarini mustahkamlashda markaziy o‘rin tutadi va xalqaro hamkorlikni kengaytiradi. Bojxona diplomatiyasi esa savdo jarayonlari va xavfsizlik choralari birlashtirishda muhim ahamiyatga ega. 1961 yilgi Vena konvensiyasi ushbu munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga soladi. Uning 27-moddasi diplomatik xabar almashinuvning daxlsizligini kafolatlaydi, bu esa savdo aloqalarida


¹ Xalqaro maydonda O‘zbekistonning madaniy diplomatiyasi <http://nhrc.uz/oz/news/m12841>

barqarorlikni ta'minlaydi. Agar bu qoida buzilsa, davlatlar o'rtasidagi ishonch zaiflashadi. Shuning uchun ushbu moddaga rioya qilish qat'iy talab qilinadi. Konvensiyaning 36-modda diplomatlarga bojxona to'lovlaridan ozodlik beradi, bu savdo operatsiyalarini tezlashtiradi va ularning vazifalarini soddalashtiradi. Xuddi shuningdek, 37-modda esa diplomatlarning oila a'zolariga qo'shimcha imtiyozlar taqdim etib, do'stona muhitni mustahkamlaydi. Natijada, xalqaro savdo yanada barqaror holga keladi².

1963 yilgi Vena konvensiyasi konsullik faoliyatni tartibga solib, konsullarning vazifalarini aniqlaydi. Ular o'z fuqarolari va kompaniyalarning bojxonada huquqlarini himoya qilib, savdo jarayonlarida adolatni

qo'llab-quvvatlaydi. Agar bojxona muammolari yuzaga kelsa, konsullar yechim topishda faol ishtirok etadi. Bu savdo jarayonlarining tezligini oshiradi. Konsullar tekshiruvlarni monitoring qilib, qonunbuzarliklarni bartaraf etadi. Shu tarzda, konsullik xizmatlari davlatlar o'rtasidagi aloqalarda muhim bog'lovchi halqa vazifasini bajaradi. Milliy xavfsizlik masalalari ham bu jarayonda doimo diqqat markazida turadi. Bojxona organlari chegaralarda noqonuniy yuklarni aniqlash bilan xavfsizlikni ta'minlaydi, ammo qattiq tekshiruvlar ba'zida savdo oqimlarini sekinlashtiradi. Diplomatiya bu to'siqlarni bartaraf etishda vositachilik qiladi.³

Hozirgi kunda oziq-ovqat xavfsizligi xalqaro savdoning muhim qismiga aylandi va "Codex Alimentarius" bu sohada global standartlarni belgilaydi. (Codex Alimentarius 1963-yilda FAO (BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti) va JSST (Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti) tomonidan tashkil etilgan. Uning asosiy maqsadi oziq-ovqat xavfsizligi va sifati bo'yicha xalqaro standartlarni ishlab chiqish va iste'molchilar salomatligini himoya qilishdir) Alimentarius Kodeksining "Umumiy gigiena prinsiplari" (CAC/RCP 1-1969, 4-bo'lim) oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va tashishda xavfsizlikni ta'minlashni talab qiladi. Bojxona organlari ushbu standartlarga rioya qilishni tekshiradi va oziq-ovqat mahsulotlarining sifatini tekshirishda mas'uliyatli vazifani bajaradi.



1-rasm. O'zbekistonning 2024 yillarda oziq-ovqat tovarlari importining davlatlar kesimida ulushi(foizlarda)⁴

² Vienna Convention on Diplomatic Relations 1961 https://legal.un.org/ilc/texts/___/9_1_1961.pdf

³ Vienna Convention on Consular Relations 1963 https://legal.un.org/ilc/___/9_2_1963.pdf

⁴ Bojxona qo'mitasi ma'lumotlari asosida.

Yuqoridagi Diagramma umumiy ulush 100% ni tashkil qiladi va O‘zbekistonga oziq-ovqat tovarlarining importida turli mamlakatlarning ulushini foizlarda ko‘rsatadi. Eng katta ulushni “Rossiya Federatsiyasi” (56%) egallaydi, bu O‘zbekiston bozori uchun asosiy importchi sifatida ajralib turadi. “Qolganlar” 14% ni tashkil qiladi, bu kichik ulushga ega bo‘lgan boshqa 70 dan ortiq mamlakatlarni anglatadi. 12% lik ulush bilan Qozog‘iston mintaqaviy sherik sifatida muhim o‘rin tutadi, go‘sht, sut mahsulotlari yoki don kabi mahsulotlarni aynan shu mamlakatdan eksport qilinadi. Turkiya (3%), Xitoy (3%), Belarusiya (4%) kabi mamlakatlar oziq-ovqat importida nisbatan cheklangan, lekin iqtisodiy aloqalar orqali ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Masalan, Turkiyadan meva-shakar mahsulotlari yoki Erondan meva va kartoshka kabi mahsulotlar import qilinadi.

Yuqoridagi tahlil asosida birgina oziq-ovqat tovarlari misolida Rossiya Federatsiyasi bizga naqadar iqtisodiy hamkor davlat ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Shu bois ikki davlat o‘rtasida 2022-yilning 2 dekabrda Samarqand shahrida bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston va Rossiya hukumat rahbarlari darajasidagi qo‘shma komissiyaning 3-majlisi doirasida ikkala mamlakat bojxona xizmati rahbarlari O‘zbekiston va Rossiyada bojxona xizmatlari vakolatxonalarini ochish to‘g‘risida bitim imzolandi hamda 2024-yilning apreloyidan boshlab O‘zbekistonning xorijdagi ilk bojxona vakili o‘z ishini boshladi. Bundan bojxona diplomatyasini amalga oshirilishining nechog‘lik ahamiyatga molik ekanligini bilishimiz mumkin.⁵

Agar tekshiruvlar kechiksada, mahsulotlar yaroqsiz holga kelib, aholining ta’minoti xavf ostida qoladi. 1961-yilgi Vena konvensiyasidagi imtiyozlar diplomatlarga oziq-ovqat yetkazib berishni muvofiqlashtirishda yordam beradi. ⁶Alementarius Kodeksining “Oziq-ovqat importi va eksporti nazorati” bo‘yicha yo‘riqnomasi (CAC/GL 47-2003) esa xavfli moddalarni aniqlashni talab qiladi. Konsullar savdo jarayonlarida Alementarius Kodeksi standartlariga muvofiqlikni ta’minlashga harakat qiladi. Bojxona diplomatiyasi Alementarius Kodeksi asosida oziq-ovqat xavfsizligini global hamkorlik orqali mustahkamlaydi.

Diplomatiya davlatlar o‘rtasidagi aloqalarni muvofiqlashtirishda milliy manfaatlar himoyasini ta’minlaydi. Bojxona diplomatiyasi esa xalqaro savdo oqimlarini boshqarishda muhim mexanizm sifatida ishlaydi. Alementarius Kodeksi oziq-ovqat xavfsizligini global savdoda tartibga soluvchi asosiy standartlarni belgilaydi. Ushbu hujjatning “Umumiy gigiena prinsiplari” bo‘limi (CAC/RCP 1-1969) mahsulot sifatini ta’minlashni talab qiladi. Bojxona organlari Kodeks qoidalariga asoslanib, oziq-ovqat importini nazoratini amalga oshiradi. Xavfsizlikning hadli standartlari esa chegara tekshiruvlarida qo‘llaniladi (Jahon bojxona tashkiloti (WCO) tomonidan ishlab chiqilgan Xavfsizlikning hadli standartlari (SAFE Framework of Standards) 2005-yilda qabul qilingan.). Bu qattiq choralarda savdo jarayonlarini sekinlashtirishi mumkin. Diplomatiya ushbu muvozanatni saqlashda vositachilik qiladi.

Alementarius Kodeksining “Oziq-ovqat importi va eksporti nazorati” yo‘riqnomasi (CAC/GL 47-2003) zararli moddalarni aniqlashda majburiy ahamiyat kasb etadi. Bojxona xizmatlari ushbu standartlarni qo‘llash bilan milliy xavfsizlikni mustahkamlaydi. Lekin qattiq tekshiruvlar oziq-ovqat mahsulotlari yaroqsiz holga kelishiga olib keladi. Bu aholining oziq-ovqat ta’minotiga xavf tug‘diradi.

Konsullar Alementarius Kodeksi standartlariga rioya qilinishini monitoring qiladi. Xavfsizlikning hadli standartlari agarda global ta’minot zanjirlarini murakkablashtirsa, bojxona diplomatiya bu va bu kabi to‘siqlarni yumshatishga harakat qiladi.

Bojxona diplomatiyasi xalqaro savdo va milliy iqtisodiyotni birlashtiruvchi mexanizm sifatida shakllandi. U to‘lovlarni boshqarish, hujjatlarni nazorat qilish va savdo jarayonlarining ochiqligini

⁵ Zafar Sanginov O‘zbekistonning Rossiyadagi bojxona vakili etib tayinlandi <https://2024/04/13/>_____

⁶ Codex Alimentarius international food standarts <https://www.fao.org/fao-who-codexalimentarius/en/>

ta'minlashga yo'naltirilgan. Bojxona organlari eksport-importni soddalashtirib, milliy xavfsizlikni mustahkamlashda yetakchi o'rin tutadi. Avtomatlashtirilgan tizimlar jarayonlarning samaradorligini oshiradi. Diplomatiya bilan hamkorlik global iqtisodiy integratsiyada muhim natijalar beradi.

Bojxona diplomatiyasining ahamiyati

Bojxona diplomatiyasi xalqaro savdo va milliy iqtisodiyotni birlashtiruvchi mexanizm sifatida shakllandi. U bojxona to'lovlarini boshqarish, hujjatlarni nazorat qilish va savdo jarayonlarining ochiqligini ta'minlashga qaratilgan. Bojxona organlari eksport-importni soddalashtirib, milliy xavfsizlikni mustahkamlashda yetakchi o'rin tutadi. Avtomatlashtirilgan tizimlar kabi zamonaviy texnologiyalar ushbu jarayonlarning samaradorligini oshiradi. Diplomatiya bilan hamkorlik global iqtisodiy integratsiyada muhim natijalar beradi.

Xavfsizlikning hadli standartlari(SAFE Framework) savdo oqimlariga ta'sir qilib, chegaralarda kechikishlar keltirib chiqaradi. Biroq, bu standartlar global bojxona hamjamiyatining ta'minot zanjiri xavfsizligiga tahdidlarga qarshi birgalikdagi javobi sifatida shakllanib va qonuniy va xavfsiz biznes faoliyatini qo'llab-quvvatlashga teng darajada xizmat qilmoqda. U butun dunyoda sinovdan o'tgan va yaxshi natija bergan asosiy standartlarni belgilaydi. Ushbu noyob xalqaro hujjat xavfsizroq savdo tizimini joriy etishga intiladi hamda bojxona va biznesning ishonchga asoslangan umumiy maqsad sari yangi ish uslublari va hamkorlik yondashuvini e'lon qiladi. 2021 yilgi Xavfsizlikning hadli standartlari versiyasi: bojxona va boshqa davlat idoralari o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlaydi; bojxona nazoratini optimallashtirish va yuklar harakatini real vaqt rejimida kuzatish uchun aqlli xavfsizlik qurilmalarini ilgari suradi; shuningdek, mintaqaviy bojxona ittifoqi Vakolatli iqtisodiy operatorlar (VIO) dasturlarni rivojlantirish va o'zaro tan olishni joriy etish bo'yicha asosiy qoidalarni o'z ichiga oladi.⁷ 1963- yilgi Vena konvensiyasi konsullarga ushbu muammolarni yumshatishda yordam beradi. Konsullar bojxona jarayonlarida muzokara olib borib, kechikishlarni kamaytiradi hamda o'z mamlakatlari VIOLarini qo'llab tan oldirishga undash orqali xalqaro savdoda yuqori samaraga erishadi. Shu bilan birga, xavfsizlik choralari diplomatik yuklarda xavfli moddalarni aniqlash uchun qo'llaniladi. 1961-yilgi konvensiyaning 36-moddasi imtiyozlarni tartibga solsa-da, xavfsizlik chegaralari qonuniy tekshiruvlarni tarfdori hisoblanadi. Diplomatiya savdo va xavfsizlik o'rtasidagi muvozanatni saqlashda muhim vositadir.

Diplomatiya va bojxona diplomatiyasi global iqtisodiy integratsiya sharoitida bir-birini qo'llab-quvvatlaydi. Diplomatik muzokaralar savdo mojarolarini tinchlik yo'li bilan hal qilib, bojxona qoidalari esa savdo tizimini yengillashtiradi. Davlatlar bojxona siyosatini xalqaro me'yorlarga moslashtirib, yangi savdo bitimlarini tuzadi. Texnologik yutuqlar ushbu sohalarni takomillashtirib, iqtisodiy rivojlanishga zamin yaratadi.

Diplomatiya va bojxona diplomatiyasi xalqaro savdo, milliy xavfsizlik va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda bir-birini to'ldiruvchi sohalardir. Diplomatik aloqalar davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlab, yangi kelishuvlarni shakllantirsa, bojxona boshqaruvi global savdo jarayonlarini tartibga soladi. Innovatsion texnologiyalar va strategiyalar ushbu sohalarni yanada rivojlantirib, davlatlar uchun barqaror iqtisodiy o'sish imkoniyatlarini kengaytiradi. Kelajakda ushbu sohalardagi hamkorlikni chuqurlashtirish xalqaro hamjamiyat uchun yangi imkoniyatlar ochadi.

Список использованной литературы:

1. Diplomatik aloqalar to'g'risidagi Vena konvensiyasi(1961).
https://legal.un.org/ilc/texts/instruments/english/conventions/9_1_1961.pdf

⁷ WCO SAFE Package WCO tools to secure and facilitate global trade

2. Konsullik aloqalar to‘g‘risidagi Vena konvensiyasi(1963).
https://legal.un.org/ilc/texts/instruments/english/conventions/9_2_1963.pdf
3. Codex Alimentarius Commission. (1969). Recommended International Code of Practice – General Principles of Food Hygiene (CAC/RCP 1-1969, Rev. 4-2003). <http://www.fao.org/fao-who-codexalimentarius/standards/list-of-standards/en/>
4. Schaffer, R., Agusti, F., & Dhooge, L. (2015). International Business Law and Its Environment <https://www.cengage.com/c/international-business-law-and-its-environment-10e-schaffer>
5. Kissinger, H. (1994). Diplomacy. New York: Simon & Schuster. Diplomatiyaning tarixiy va zamonaviy jihatlari haqida klassik asar.
<https://www.simonandschuster.com/books/Diplomacy/Henry-Kissinger/9780671510992>
6. WTO (World Trade Organization). (2023). Trade Facilitation Agreement and Customs Modernization. Bojxona jarayonlarini soddalashtirish va xalqaro savdo me‘yorlari haqida.https://www.wto.org/english/tratop_e/tradfa_e/tradfa_e.htm
7. Berridge, G. R. (2015). Diplomacy: Theory and Practice. London: Palgrave Macmillan. Diplomatiya nazariyasi va amaliyotining zamonaviy tahlili.
<https://www.palgrave.com/gp/book/9781137445513>
8. UNCTAD (United Nations Conference on Trade and Development). (2022). Customs Automation and Trade Efficiency. Bojxona tizimlarining avtomatlashtirilishi va savdo samaradorligi haqida. <https://unctad.org/topic/trade-facilitation>
9. Keohane, R. O., & Nye, J. S. (2001). Power and Interdependence. New York: Longman. Global iqtisodiy integratsiya va davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik haqida.
<https://www.pearson.com/us/higher-education/product/Keohane-Power-and-Interdependence-3rd-Edition/9780321048578.html>
10. Jahon Bojxona Tashkiloti (WCO). (2024). Customs in the 21st Century: Enhancing Growth and Development through Trade. Bojxona diplomatiyasining zamonaviy strategiyalari va texnologiyalari. <https://www.wcoomd.org/en/topics/facilitation.aspx>